



Toshkent viloyatining sanoatlash chiqarishi (2020-yil yanvar-may)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida Toshkent viloyati korxonalaridan 22,3 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 100,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,7 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 14,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 32,0% ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 1,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 3,5% ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 956,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,3 % ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan koʻmir qazib olish - 10,0 % ga hamda chaqiq tosh - 17,8 % ga, tabiiy gaz qazib olish 1,0 % oshgan boʻlsa, shagʻal qazib olish 53,0 % ga, kaolin - 22,9 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	1169,3	1286,6	117,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	125,4	126,6	1,2
Chaqiq tosh, ming t.	108,0	127,2	19,2
Shag'al, ming t.	64,3	30,2	-34,1
Kaolin, ming t.	102,3	78,9	-23,3



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot-lar hajmi 18886,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,7 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,4% ni (2019- yil yanvar-may oylarida –0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali –12,7% (12,4%), o'rta-quyi texnologiyali – 50,9 % (51,6%) va quyi texnologiyalisi 19,6% (21,0%) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 8,6 % (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi –109,5%), metallurgiya sanoatining ulushi –45,5% (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi –6,9% (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,4%), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi –11,2% (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,2%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –7,1% (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,1%) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	114,5	143,8	29,3
O'simlik yog'i (tozalangan), <i>ming t.</i>	3,7	3,3	-0,4
Pivo, <i>ming l</i>	38777,5	45640,4	6862,9
Kalava ip, <i>ming t</i>	14,9	12,2	-2,7
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	9,6	12,7	3,1
Paxta chigiti, <i>ming t.</i>	15,7	21,2	5,5




Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Portlandsement, <i>ming t.</i>	1858,4	1693,7	-164,7
Sement klinkerlari, <i>ming t</i>	1310,2	1428,8	118,6
Etil spirti, <i>ming l.</i>	5659,3	5915,5	-256,2
Kultivatorlar, <i>dona</i>	61	40	-21
Avtomobil dvigitellari, <i>dona.</i>	78342	94208	15866

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, ammoniy sulfat (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 112,2%), karbomid (112,5%) o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, sulfat kislotasi (2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 96,3%), mineral o'qitlar (89,4%) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2358,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (10,6% ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,5% ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	7305,3	6743,8	-561,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1659,9	1843,0	183,1



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 102,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	14651,7	15785,6	1133,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln.so'm	33538,2	41186	7647,8



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4,0 trln.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 18,1% ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-may oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida noziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 51,7 % dan 43,9 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,7% (2019-yil yanvar-may oylarida 8,5 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to'g'ri kelib, 2,8% ni, shuningdek, Qibray tumani 1,8% ni, Chirchiq shahri 1,8% ni, Ohangaron shahri 1,9% ni hamda Angren shahri 1,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyato'sish sur'ati (105,0%) darajasidan yuqori ko'rsatkich Ohangaron (154,8%), Bekobod(173,4%), Angren (132,8 %) shaharlarida, Quyichirchiq (184,8%) hamda Qibray (116,0%) tumanlarida qayd etildi.




**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-may oylarida)

	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Toshkent viloyati	4 029,8	18,1	105,0
Shaharlar:			
Nurafshon	46,2	0.2	90,3
Olmaliq	62,3	0.3	66,0
Angren	342,3	1.5	132,8
Bekobod	87,0	0.4	173,4
Ohangaron	426,3	1.9	154,8
Chirchiq	398,8	1.8	118,1
Yangiyo'l	90,4	0.4	76,5
Tumanlar:			
Oqqo'rg'on	170,1	0.8	132,7
Ohangaron	49,5	0.2	77,5
Bekobod	44,2	0.2	88,7
Bo'stonliq	158,9	0.7	91,4
Bo'ka	37,5	0.2	66,5
Zangiota	624,7	2.8	94,1
Yuqorichirchiq	228,8	1.0	95,9
Quyichirchiq	94,2	0.4	184,8
Qibray	407,8	1.8	116,0
Parkent	81,8	0.4	92,1
Piskent	115,1	0.5	94,7
O'rtachirchiq	74,7	0.3	59,5
Chinoz	91,9	0.4	86,4
Yangiyo'l	149,0	1.1	95,5
Toshkent	248,2	0.7	89,0


Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qibray tumaniga to'g'ri kelib, 72,9 %,

shuningdek, Bo'stonliq tumani 70,2 % ni, Zangiota tumani 68,9 % ni, Yuqorichirchiq tumani 66,0 % ni hamda Angren shahri 59,8 % nitashkil etdi.

 Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020-yilning yanvar-may oylarida)			
	Mrld.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Toshkent viloyati	2260,2	56,1	40,5
Shaharlar:			
Nurafshon	15,5	33,5	22,9
Olmaliq	29,9	47,9	22,0
Angren	204,6	59,8	52,6
Bekobod	25,6	29,4	37,8
Ohangaron	210,4	49,3	51,0
Chirchiq	123,6	31,0	28,6
Yangiyo'l	42,0	46,5	28,6
Tumanlar:			
Oqqo'rg'on	112,4	66,1	53,1
Ohangaron	22,2	44,8	24,5
Bekobod	23,0	52,1	30,9
Bo'stonliq	111,6	70,2	40,4
Bo'ka	19,2	51,1	23,4
Zangiota	430,6	68,9	41,7
Yuqorichirchiq	151,0	66,0	41,3
Quyichirchiq	38,8	41,1	53,4
Qibray	297,1	72,9	64,3
Parkent	45,8	56,1	38,4
Piskent	75,1	65,3	36,2
O'rtachirchiq	38,6	51,6	20,7
Chinoz	56,3	61,2	38,7
Yangiyo'l	77,4	51,9	33,3
Toshkent	109,6	44,2	30,6

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlabchiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bekobod shahriiga to'g'ri kelib, 70,6 % ni, shuningdek, Chirchiq shahri 69,0 % ni, Olmaliqs hahrii 52,1 % ni, Ohangaron shahri 50,7 % ni hamda Toshkent tumani 55,8% ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Bekobod shahri (189.1%), Ohangaron shahri (160,7 %), Chirchiq shahri (114,4%) hamda Quyichirchiq (191,4 %) tumanida qayd etildi.

 **Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar-may oylarida)

	Mrld.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Toshkent viloyati	1769,6	43,9	99,1
Shaharlar:			
Nurafshon	30,7	66,5	90,2
Olmaliq	32,5	52,1	62,2
Angren	137,7	40,2	111,2
Bekobod	61,4	70,6	189,1
Ohangaron	216,0	50,7	160,7
Chirchiq	275,3	69,0	114,4
Yangiyo'l	48,4	53,5	79,6
Tumanlar:			
Oqqo'rg'on	57,7	33,9	130,2
Ohangaron	27,3	55,2	74,8
Bekobod	21,2	47,9	84,7
Bo'stonliq	47,3	29,8	83,8
Bo'ka	18,4	48,9	60,1
Zangiota	194,0	31,1	78,0
Yuqorichirchiq	77,9	34,1	71,6
Quyichirchiq	55,5	58,9	191,4
Qibray	110,7	27,1	101,1
Parkent	35,9	43,9	99,6
Piskent	40,0	34,7	114,5
O'rtachirchiq	36,2	48,4	57,1
Chinoz	35,6	38,8	69,1
Yangiyo'l	71,5	48,0	90,6
Toshkent	138,6	55,8	90,2



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4,8 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.



**Toshkent viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**


	2020-yil yanvar-may mlrd.soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent viloyati	22 303,9	100,2
Shaharlar:		
Nurafshon	336,7	96,0
Olmaliq	8604,1	104,6
Angren	1690,1	96,4
Bekobod	2722,4	101,7
Ohangaron	1029,8	107,7
Chirchiq	1774,8	97,1
Yangiyoʻl	207,4	84,3
Tumanlar:		
Oqqoʻrgʻon	254,2	115,8
Ohangaron	114,8	73,0
Bekobod	128,5	101,5
Boʻstonliq	448,5	74,9
Boʻka	49,5	54,9
Zangiota	1 754,0	100,3
Yuqorichirchiq	393,1	82,8
Quyichirchiq	157,2	109,9
Qibray	1393,3	90,5
Parkent	100,2	87,9
Piskent	161,0	100,4
Oʻrtachirchiq	113,4	53,8
Chinoz	117,8	59,4
Yangiyoʻl	350,3	99,3
Toshkent	402,7	88,6



Toshkent viloyati hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati% da


Toshkent viloyati sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Piskent (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 52,9 %), Bo'ka 54,1 %), O'rtachirchiq (58,5%), Bekobod (74,1%), tumanlarida hamda Olmaliq (94,9%), Chirchiq (96,1%) shahalarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da



Nurafshon sh
Olmaliq sh
Angren sh
Bekobod sh
Ohangaron sh
Yangiyo'l sh
Chirchiq sh
Oqqo'rg'on
Ohangaron
Bekobod
Bo'stonliq
Bo'ka
Zangiota
Yuqorichirchiq
Quyichirchiq
Qibray
Parkent
Piskent
O'rtachirchiq
Chinoz
Yangiyo'l
Toshkent


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishdao'sish sur'ati, % da



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Ohangaron (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 154,8 %), Bekobod (173,4 %), Chirchiq (118,1%), Angren (132,8%) shaharlarida, Quyichirchiq (184,8 %), Qibray (116,0%), Oqqo'rg'on (132,7%), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.



Toshkent viloyatining jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,6 % ulushini), Bekobod shahar (12,2 %), Angren shahar (7,6 %), Chirchiq shahar (8,0 %), Zangiota tumani (7,9 %), Qibray tuman (6,2 %), hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bo'ka (0,2%), hamda Parkent (0,4 %) Ohangaron (0,5%), Bekobod (0,6%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (65 518,4 ming so'm), Bekobod (28 368,9 ming so'm), Ohangaron (27 092,5 ming so'm) tashkil etib, Toshkent viloyati darajasi ko'rsatkichidan (7569,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

ViLOYAT bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1367,7 ming so'm bo'lgani holda, Ohangaron shahrida – 11216,3 ming so'mni, Chirchiq shahrida – 2533,2 ming so'mni, hamda Zangiota– 3 159,0 ming so'mni, Toshkent 1 373,4 ming so'mni, Qibray 2 032,4 tumanlarida ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020-yil yanvar-may oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Toshkent viloyati	7 569,1	1367,7
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	6 904,2	948,0
Olmaliq	65 518,4	474,6
Angren	8 956,2	1 814,0
Bekobod	28 368,9	906,6
Ohangaron	27 092,5	11216,3
Chirchiq	11 272,6	2 533,2
Yangiyo'l	3 425,2	1 493,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	2 417,2	1 617,3
Ohangaron	1 198,5	516,9
Bekobod	815,5	280,5
Bo'stonliq	2 652,1	939,5
Bo'ka	393,6	298,5
Zangiota	8 870,0	3 159,0
Yuqorichirchiq	2 898,5	1 686,9
Quyichirchiq	1 454,3	871,9
Qibray	6 943,5	2 032,4
Parkent	646,0	527,4
Piskent	1 594,7	1 140,0
O'rtachirchiq	758,1	499,4
Chinoz	880,2	686,7
Yangiyo'l	1 666,4	708,6
Toshkent	2 228,3	1 373,4



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-may oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3,5 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bo'ka (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Quyichirchiq (92,2 %), Parkent (84,7 %), O'rtachirchiq (77,7 %), Ohangaron (59,6 %), tumanlarida hamda Ohangaron (57,4 %), Yangiyol (39,1 %) shaharlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Olmaliq (0,9 %), Bekobod (3,2 %) va Chirchiq (11,0 %) shaharlarida hamda Zangiota tumanida (19,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 7831 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1190 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 15,2%i) Zangiota tumaniga, 719 tasi (9,2 %) Qibray tumaniga, 672 tasi (8,6 %) Toshkent tumaniga, 491 tasi (6,3 %) Yangiyo'l tumaniga, 379 tasi (4,8%) Olmaliq shahriga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Nurafshon sh
Olmaliq sh
Angren sh
Bekobod sh
Ohangaron sh
Yangiyo'l sh
Chirchiq sh
Oqqo'rg'on
Ohangaron
Bekobod
Bo'stonliq
Bo'ka
Zangiota
Yuqorichirchiq
Quyichirchiq
Qibray
Parkent
Piskent
O'rtachirchiq
Chinoz
Yangiyo'l
Toshkent

Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda



**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 202-86-66